

12-1-2021

FOREIGN EXPERIENCE OF DIVIDEND POLICY IN COMMERCIAL BANKS

R. Kunarov

The National Bank of Uzbekistan

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance>

Recommended Citation

Kunarov, R. (2021) "FOREIGN EXPERIENCE OF DIVIDEND POLICY IN COMMERCIAL BANKS," *International Finance and Accounting*: Vol. 2021 : Iss. 6 , Article 21.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2021/iss6/21>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in International Finance and Accounting by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

R.R.Kunarov

O‘zbekiston milliy banki

TIJORAT BANKLARIDA DIVIDEND SIYOSATINING XORIJ TAJRIBASI

Ushbu maqolada tijorat banklarining dividend siyosati bo‘yicha turli xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning qarashlari va fikrlari o‘rganilgan. Tijorat banklarining dividend siyosatini tashkil etishning nazariy asoslari, dividend siyosatining tijorat banklari rivojlanishiga ta’siri, dividend to‘lovlarini amalga oshirishda e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar tadqiq qilingan. Kanada va Indoneziyadagi tijorat banklarining dividend siyosati, xususan, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, dividend bo‘yicha daromadlilik, dividend to‘lovlari davri kabilar tahlil qilingan. Tijorat banklari dividend siyosatining xorij tajribasini o‘rganish asosida tegishli ilmiy xulosa va takliflar berilgan.

Tayanch so‘zlar: dividend, dividend siyosati, dividend bo‘yicha daromadlilik, tijorat banklari, aksiya kursi, investitsion jozibadorlik.

R.R.Kunarov

The National Bank of Uzbekistan

FOREIGN EXPERIENCE OF DIVIDEND POLICY IN COMMERCIAL BANKS

This article studies the views and opinions of various foreign and local researchers on the dividend policy of commercial banks. The theoretical foundations of the organization of dividend policy of commercial banks, the impact of dividend policy on the development of commercial banks, aspects that should be taken into account when making dividend payments are learnt. Dividend policies, in particular, their characteristics, dividend yield, dividend payment period of commercial banks in Canada and Indonesia are analyzed. Appropriate scientific conclusions and proposals are given based on the study of foreign experience of dividend policy in commercial banks.

Keywords: dividend, dividend policy, dividend yield, commercial banks, stock price, investment attractiveness.

Kirish

Mamlakatimizda tijorat banklari moliya bozorining asosiy ishtirokchilaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, iqtisodiyotda asosiy moliyalashtiruvchi institut sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Bunday sharoitda tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish, samarali korporativ boshqaruvni joriy qilish, nafaqat asosiy faoliyat, balki investitsiya faoliyati bilan ham faol shug‘ullanishini rag‘batlantirish maqsadga muvofiq.

Tijorat banklarining fond bozorida faolligini ta’minlash va investitsion jozibadorligini oshirishda tijorat banklarida amalga oshiriladigan dividend

siyosatining ahamiyatini alohida ta’kidlab o’tishimiz lozim. Xususan, tijorat banklarining oqilona dividend siyosati fond bozorida tijorat banklari aksiyalari kursining oshishi, potensial investorlarni jalb qilish, investitsion jozibadorlikni oshirish, tijorat banklarini rivojlantirish kabilarga yordam beradi. Shu sababli hozirgi kunda milliy amaliyotimizda tijorat banklarining dividend siyosatini tahlil qilish va xorij tajribasi asosida takomillashtirish dolzarflik kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Bir guruh olimlarning ta’kidlashicha, bank menejerlari risklarni aksiyadorlardan omonatchilarga va boshqa kreditorlarga o’tkazish uchun dividendlardan foydalanadi [1].

Investorlarni himoya qilish darajasi va dividendlarni to’lash o’rtasida ijobiy bog’liqlik mavjud. Agar aksiyadorlar yaxshi himoyalangan bo’lsa, ular kompaniya rivojlanayotganda kamroq dividend olishga ham rozi bo’ladi. Aksincha, investorlarni himoya qilish darajasi past bo’lgan hollarda aksiyadorlar o’sish imkoniyatlarini hisobga olmagan holda imkon qadar kompaniyalardan maksimal dividend olishga harakat qilishadi [2].

Banklar dividend to’lovlarini qisqartirish yoki dividend to’lamaslik orqali o’z kapitallashuvini yaxshilashlari mumkin. Biroq, ba’zi kuzatuvchilar investorlar va moliyaviy tahlilchilar uchun dividendlar to’lovlarining qisqarishi kelajakdagi muammolarni ko’rsatadigan salbiy signal sifatida talqin qilinishini ta’kidlashadi [3].

M.Belloni, M.Grodzicki va M.Jarmuzeklarning fikricha, dividend to’lashni tartibga solishni tashkil etishning uchta asosiy sababi mavjud: aksiyadorlar va boshqaruv o’rtasidagi assimetrik ma’lumotlar, agentlik xarajatlarining mavjudligi va tartibga soluvchi cheklovlarning mavjudligi [4].

K.Imran, M.Usman, M.Nishatlarning ta’kidlashlaricha, bankning bir dona aksiya bo’yicha daromadliligi, so’nggi yildagi dividend to’lovlari, kapital nisbati va hajmi dividend to’lovlarini aniqlashda hal qiluvchi omillardir [5].

S.V.Shchurina va M.A.Prunenkolarga ko’ra, dividendlar darajasining oshishi aksiyaning bozor qiymatining mos ravishda oshishiga olib keladi, buning natijasida aksiyadorlar quyidagilarga erishadi:

- 1) oshib boruvchi foiz daromadlari (dividendlar shaklida);
- 2) aksiyalarning bozor qiymati o’sishidan daromad.

Dividendlar darajasining o’sishi mavjud va potensial aksiyadorlarga kompaniya muvaffaqiyatli ishlayotganligi va kelajakdagi daromadning oshishi kutilayotganidan dalolat beradi [6].

“Aksariyat kompaniyalar yuqori dividend to’lash orqali barqaror dividend siyosatiga amal qilishadi va bu orqali aksiyalarning bozor qiymatini oshirishi mumkin, deb hisoblashadi. Bundan tashqari, bozorda bunday kompaniyalarning obro’si yaxshilanmoqda va investorlar ham bunday kompaniyalarni ma’qul ko’rmoqda. Shunday qilib, ushbu siyosatni olib boradigan kompaniyalar zarur bo’lganda kompaniya faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish uchun qo’shimcha mablag’ to’plash uchun bozorga muvaffaqiyatli murojaat qilishlari mumkin” [7].

Bir guruh tadqiqotchilar oqilona dividend siyosati aksiya narxiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga, shuningdek, raqobatchi kompaniyalar tomonidan kompaniyalarning qo'shib olinishining oldini olishga yordam berishini ham ta'kidlab o'tishgan [8].


Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikr-mulohazalariga qo'shilgan holda aytishimiz mumkinki, tijorat banklari dividend siyosatini samarali tashkil etish orqali asosiy faoliyati bilan bir qatorda investitsiya faoliyatini ham ijobiy tomonga o'zgartirishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada tijorat banklari dividend siyosatining xorij tajribasini o'rganishda qiyoslash, induksiya, deduksiya, analiz, sintez, ilmiy abstraksiyalash kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda tijorat banklari korporativ sektorning asosini tashkil etuvchi moliyaviy institut sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli tijorat banklarining faoliyat samaradorligini oshirish, oqilona dividend siyosatini yo'lga qo'yish orqali ularda samarali korporativ boshqaruvni tashkil etish va ularning kapital bozorida faolligini oshirish muhim hisoblanadi.



1-rasm. Tijorat banklarining dividend siyosati tamoyillari¹

Tijorat banklarining dividend siyosatini tashkil etishda shaffoflik, muddatlilik, asoslanganlik, adolat, mantiqiylik, rivojlanish, barqarorlik tamoyillariga asoslanishini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim (1-rasm).

Xalqaro amaliyotda tijorat banklarining dividend siyosatini o'rganish mamlakatimizdagi tijorat banklari amaliyotida mavjud muammolarni aniqlashga imkon beradi. Rivojlangan mamlakatlardagi banklarning dividend siyosatini Kanada

¹ Iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan


misolida o‘rganadigan bo‘lsak, 2021-yil may holatiga ko‘ra dividend bo‘yicha daromadlilik o‘rtacha 3.5-4.5% oralig‘ida ekanligini kuzatishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

Kanadadagi eng yirik banklarning dividend bo‘yicha daromadlilik ko‘rsatkichlari [9]

Qisqacha nomi	Banklar	Bozor kapitalizatsiyasi, mlrd. AQSh dollari	P/E	Dividend bo‘yicha daromadlilik, %
RY	Royal Bank	141.31	14.89	3.59
TD	TD Bank	129.15	13.10	3.67
BNS	Scotia Bank	79.38	14.93	4.53
BMO	Bank of Montreal	62.88	14.37	3.60
CM	CIBC	47.97	14.30	4.47
NA	National Bank	30.66	14.72	3.13
CWB	Canadian Western Bank	2.96	11.56	3.41
LB	Laurentian Bank	1.89	16.45	3.67

1-jadvaldagi banklarning dividend bo‘yicha daromadlilik ko‘rsatkichlarini tahlil qilsak, eng yuqori ko‘rsatkichga ega banklar sifatida Scotia bank va CIBC banklarini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.



2-rasm. Toronto-Dominion bankining dividend bo‘yicha daromadlilik ko‘rsatkichlari tahlili [10]

Toronto-Dominion banki (TD Bank)ning dividend bo‘yicha daromadlilik ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratsak, 2013-2020 yillarda eng yuqori ko‘rsatkich 4,8 foiz (2020-yilda) bo‘lgan. Shuningdek, ushbu bankning dividend bo‘yicha daromadlilik ko‘rsatkichlarida keskin o‘zgarishlar deyarli mavjud emas va bu jihat potensial investorlar uchun nisbatan ijobiy holat hisoblanadi (2-rasm).

2-jadval

Indoneziyaning Danamon Banki dividend to‘lovlari tahlili, Indoneziya rupiyasi (IDR)da [11]

Moliya yili	E‘lon qilingan sana	To‘lov sanasi	1 dona aksiyaga to‘g‘ri keladigan dividend
2020	4.05.2021	3.06.2021	IDR 36,08
2019	26.03.2020	24.06.2020	IDR 187.55
2018	27.04.2019	26.04.2019	IDR 143,22
2017	21.03.2018	18.04.2018	IDR 133,44
2016	13.04.2017	12.05.2017	IDR 97,48
2015	29.04.2016	27.05.2016	IDR 74.90
2014	08.04.2015	8.05.2015	IDR 81.50
2013	08.05.2014	18.06.2014	IDR 126.50
2012	13.05.2013	19.06.2013	IDR 125.58
2011	29.03.2012	08.05.2012	IDR 104.43
2010	01.04.2011	10.05.2011	IDR 119.87
2009	03.05.2010	10.06.2010	IDR 91.12
2008	01.06.2009	07.07.2009	IDR 91.37
2007	29.04.2008	04.06.2008	IDR 209.80
2006	26.04.2007	05.06.2007	IDR 132.87
2005	29.05.2006	04.07.2006	IDR 202.6

Danamon Banking dividend siyosati direktorlar kengashi va aksiyadorlar tomonidan tasdiqlangan. Dividendlarni taqsimlash bo‘yicha taklif taqsimlanmagan foyda yetarli deb topilgan taqdirda tasdiqlash uchun aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga taqdim etiladi. Tasdiqlangandan so‘ng yillik umumiy yig‘ilish Indoneziya fond birjasi (IDX) qoidalariga muvofiq to‘lash vaqti va usulini, shu jumladan, aksiyadorlar dividendlar olish huquqiga ega bo‘lgan sana yoki vakolat direktorlar kengashiga berilgan sanani belgilaydi. Bank moliyaviy yil oxirigacha oraliq dividendlarni Direktorlar kengashi va yillik umumiy yig‘ilish tomonidan ma‘qullangan taqdirda to‘lashi mumkin. 2021-yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi 2020-moliya yili uchun naqd dividendlarni taqsimlashni tasdiqladi va ushbu qaror asosida 2020-yil sof foydaning 35%i (taxminan 352 664 900 000 IDR) yoki har bir aksiya uchun 36,08 IDR dividend sifatida to‘langan (2-jadval).

Xulosa va takliflar

Tijorat banklarida dividend siyosati amaliyotining xorij tajribasini o‘rganish asosida quyidagi xulosalar va takliflarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Birinchidan, tijorat banklari tomonidan amalga oshirilgan samarali dividend siyosati fond bozorida tijorat banklari aksiyalari kursining oshishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, samarali dividend siyosati potensial investorlarning qiziqishlarini ham oshiradi. Bu esa dividend siyosatini samarali tashkil etishning tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilishini anglatadi.

Ikkinchidan, muntazam ravishda aksiyadorlarni qanoatlantiradigan darajada dividend to‘lanishi aksiyadorlarni tijorat banklarining yaxshi rivojlanayotganligi to‘g‘risida xulosa chiqarishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, aksiyadorlar va boshqaruv o‘rtasidagi assimetrik ma‘lumotlar bilan bog‘liq muammolar, agentlik xarajatlarining mavjudligi va tartibga soluvchi cheklovlarning mavjudligi kabi sabablar dividend siyosatini samarali tashkil etish va tartibga solish lozimligini ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, dividendlar darajasining o‘sishi mavjud va potensial aksiyadorlarga kompaniya muvaffaqiyatli ishlayotganligi va kelajakdagi daromadning oshishi kutilayotganidan dalolat beradi.

Beshinchidan, Kanada va Indoneziya mamlakatlaridagi tijorat banklarida amalga oshirilgan dividend siyosatlarini o‘rgangan holda aytishimiz mumkinki, tijorat banklari dividend bo‘yicha qaror qabul qilishda aksiyadorlarni qanoatlantiradigan daromadlilikni ta‘minlashga ham e‘tibor qaratishi lozim. Chunki, boshqa turdagi foiz ko‘rinishidagi daromadlardan past darajada dividend to‘lansa, dividend olishni maqsad qilgan aksiyadorlar o‘zlariga tegishli aksiyalarni tezroq sotishga harakat qilishadi. Bu esa, o‘z navbatida, tijorat banklari aksiyalari kursiga salbiy ta‘sir qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Edie Erman Che Johari, Dimitris K.Chronopoulos, Bert Scholtens, Anna L.Sobiech, John O.S.Wilson. Deposit insurance and bank dividend policy. // Journal of Financial Stability, Volume 48, June 2020
2. Seyed Alireza Athari, Cahit Adaoglu, Eralp Bektas. Investor protection and dividend policy: The case of Islamic and conventional banks. // Emerging Markets Review, Volume 27, June 2016
3. Tobias Basse, Sebastian Reddemann, Johannes-Jörg Riegler, J.-Matthias Grafvon der Schulenburg. Bank dividend policy and the global financial crisis: Empirical evidence from Europe. // European Journal of Political Economy, Volume 34, Supplement, June 2014;
4. Marco Belloni, Maciej Grodzicki and Mariusz Jarmuzek. What makes banks adjust dividend payouts? // European Central Bank, 2021;
5. Kashif Imran, Muhammad Usman, Muhammad Nishat. Banks dividend policy: Evidence from Pakistan. // Economic Modelling, Volume 32, May 2013, Pages 88-90;
6. S.V.Shchurina, M.A.Prunenکو. THE DIVIDEND POLICY FOR BANKING SECTOR: EXAMPLES OF RUSSIAN AND CHINESE BANKS. // International Scientific Conference "Global Challenges and Prospects of the Modern Economic Development", GCPMED 2018, The European Proceedings of Social & Behavioural Sciences, 10 Pages;
7. Elmirzayev, S. and Omonov, S. (2020) "DIVIDEND POLICY ANALYSIS IN DEVELOPED COUNTRIES AND DIVIDEND ARISTOCRATS," International Finance and Accounting: Vol. 2020 : Iss. 2 , Article 22. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2020/iss2/22>

8. Kurbonov, J. PhD; Kholikov, U. PhD; Shukurullaev, M.; and Atabaev, Sh. (2021) "INCREASING BUSINESS VALUE AND PROFIT DISTRIBUTION MECHANISM: ANALYSIS OF GLOBAL PRACTICE," International Finance and Accounting: Vol. 2021 : Iss. 1 , Article 3. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2021/iss1/3>

9. <https://dividendearner.com/best-canadian-bank-stocks/> - korporativ moliya bo'yicha ma'lumotlar taqdim etuvchi Dividend Earner rasmiy veb-sayti ma'lumotlari

10. <https://www.statista.com/statistics/461589/dividend-of-toronto-dominion-bank/> - xalqaro statistik ma'lumotlar taqdim etuvchi Statista rasmiy veb-sayti ma'lumotlari

11. <https://www.danamon.co.id/en/Tentang-Danamon/InformasiInvestor/Informasi-Dividenden> - Danamon Bankining rasmiy veb-sayti